

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati
va boshqaruvi akademiyasi**

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026 1 (111)

1997 yildan nashr etiladi

Toshkent – 2026

PREZIDENTNING YASHIRIN VAKOLATLARI: TUSHUNCHA, TASNIFLASH VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Botu Alimov,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar bo'yicha PhD

Annotatsiya: maqolada prezidentning konstitutsiya matnida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan, ammo amaliyotda keng qo'llaniladigan yashirin vakolatlarining ilmiy-nazariy jihatlari tahlil etilgan, ushbu siyosiy-huquqiy institutning xorijiy adabiyotlardagi muqobil atamaları qiyosiy o'rganilgan va o'zaro taqqoslangan, Amerika, Yevropa va MDH olimlari bilan ilmiy bahs-munozaraga kirishilgan holda mualliflik xulosalari ishlab chiqilgan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat rahbarining bu turkumdagi vakolatlari xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi va amaliyoti bilan qiyosiy-huquqiy tahlil asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *prezidentning yashirin vakolatlari, implitsit vakolatlar, norasmiy vakolatlar, tabiiy vakolatlar, prerogativ vakolatlar, farmon huquqi, delegatsiya qilingan vakolatlar, bir tomonlama vakolatlar, ekstraordinar vakolatlar, zaxira vakolatlar, prezident vakolatlarining tasnifi.*

Скрытые полномочия президента: понятие, классификация и сравнительно-правовой анализ

Боту Алимов,

соискатель Академии государственной политики
и управления при Президенте Республики
Узбекистан, PhD по юридическим наукам

Аннотация: в статье проанализированы научно-теоретические аспекты скрытых полномочий президента, прямо не предусмотренных в конституционном тексте, но широко применяемых на практике, проведено сравнительное исследование и сопоставление альтернативных терминологических обозначений данного политико-правового института в зарубежной литературе, вступая в научную полемику с американскими, европейскими и учёными стран СНГ выработаны авторские заключения, на основе сравнительно-правового анализа с законодательством и практикой зарубежных государств раскрыты полномочия главы государства данной категории в Конституции Республики Узбекистан в новой редакции.

Ключевые слова: скрытые полномочия президента, имплицитные полномочия, неформальные полномочия, естественные полномочия, прерогативные полномочия, указное право, делегированные полномочия, односторонние полномочия, экстраординарные полномочия, резервные полномочия, классификация президентских полномочий.

Hidden powers of the president: concept, classification and comparative legal analysis

Botu Alimov,
**Researcher of the Academy of Public Policy
and Administration under the President of the
Republic of Uzbekistan, PhD in Law**

Abstract: the article analyzes the scientific and theoretical aspects of the hidden powers of the president, which are not directly provided for in the constitutional text but are widely exercised in practice; alternative terminological designations of this political-legal institution in foreign literature have been comparatively studied and cross-referenced; entering into scholarly debate with American, European and CIS scholars, the author's original conclusions have been formulated; the powers of the head of state in this category under the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan have been revealed through comparative legal analysis with the legislation and practice of foreign states.

Keywords: *hidden presidential powers, implicit powers, informal powers, inherent powers, prerogative powers, decree power, delegated powers, unilateral powers, extraordinary powers, reserve powers, classification of presidential powers.*

KIRISH

Ilk bor prezidentlik instituti ta'sis etilganiga deyarli ikki yarim asr bo'layotganiga qaramay, prezident vakolatlarining konstitutsiyaviy chegaralari haligacha dolzarb nazariy va amaliy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Jahonda 130 dan ortiq davlatlarda respublika boshqaruv shakli o'rnatilgan, ushbu davlatlarda prezidentlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa-da, bu davlatlarda boshqaruv shakllari o'ziga xos bo'lib, prezident vakolatlarining konstitutsiyaviy va amaliy chegaralari bunga ta'sir qiluvchi omillardan.

Ushbu masala yuzasidan ilmiy jamoatchilikda keng ilmiy bahs-munozaralar olib borilayotgani tahlil predmetining dolzarbligini belgilaydi. V. Komarovaning ta'kidlashicha, «prezident vakolatlarining qonunchilik va qonunosti hujjatlari asosidan kengayishi, yashirin vakolatlarining institutsionalashuvi kuzatilmoqda» [1, 15-b.]. S. Grimaldi bunday holatni «xonadagi fil» metaforasi bilan ifodalab, aksa-riyat olimlar prezident vakolatlari shunchaki rasmiy, ya'ni konstitutsiyalarda yozilgan vakolatlar deb faraz qilishini, aslida, davlat rahbari vakolatlari konstitutsiyada belgilanganidan oshishi mumkinligini qayd etadi [2, 21-22-b.], ya'ni «rasmiy vakolatlar kam bo'lganda, norasmiy vakolatlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi, keng rasmiy vakolatlar esa tegishli norasmiy vakolatlarga bo'lgan ehtiyojni cheklaydi» [2, 25-26-b.].

Bu masala O'zbekiston qonunchiligi va davlat boshqaruvi tajribasi uchun ahamiyat kasb etadi, zotan yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining 11-moddasida davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga asoslanishi mustahkamlab qo'yilgan, vakolatlarining hokimiyat tarmoqlari o'rtasidan qayta taqsimlanishi davlat boshlig'ining yashirin vakolatlari masalasiga mantiqiy nuqta qo'yganni yoki yangi shaklda davom ettirmoqdami – bu masala hali ilmiy jihatdan o'rganilmagan.

Tahlilni «yashirin vakolatlar» tushunchasini keng qamrovda ochib berishdan boshlash maqsadga muvofiq, zero bugungi kunda bu masalada yagona ilmiy terminologiya shakllanmagan, olim va tadqiqotchilar tomonidan mavjud tasniflarning birortasiga to'g'ri kelmaydigan vakolatlar mavjudligi qayd etiladi [1, 18-b.].

V. Komarovning fikricha, bunday vakolatlarining «nomlari turlicha: yashirin, nazarda tutilgan, farmon huquqi, topshiriq huquqi, zaxira vakolatlar» [1, 18-b.]. Ilmiy munozarani davom ettirib, olima: «Qanday vakolatlarni yashirin vakolatlar deb atash mumkin – Konstitutsiya matnida to'g'ridan-to'g'ri belgilab o'tilmagan (birlamchi) vakolatlarnimi yoki qonunchilikda nazarda tutilmaganlarnimi (ikkilamchi)?» [1, 19-b.] degan prinsipial savolni ko'taradi.

Komarovning ushbu tasnifini Rossiya Konstitutsiyasi tahririda aniqlashtirish mumkin: birlamchi yashirin vakolatlarining konstitutsiyaviy manbasi – bu davlat rahbarining «kafil» (garant) maqomi, ya'ni Konstitutsiyaning 80-moddasida: Prezident «Konstitutsiya, inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari kafili» deb belgilanib, «suverenitetni muhofaza qilish, mustaqillik va davlat yaxlitligini ta'minlash, davlat hokimiyati organlarining muvofiqlashgan faoliyat yuritishi va o'zaro hamkorligini ta'minlash» vazifasini yuklaydi. Rossiya Konstitutsiyaviy Sudi bu formulani yashirin vakolatlarining huquqiy asosi sifatida talqin qiladi, bir qator qarorlarida [3; 4] Prezidentning «tegishli qonun mavjud bo'lmagan hollarda ham» Konstitutsiyani bevosita ijro etish uchun huquqiy hujjatlar chiqarish vakolatini tan olgan.

Qozog'iston Konstitutsiyasi bu yondashuvni yanada kuchaytirgan – 40-moddada Prezident «xalq va davlat hokimiyati birligi, Konstitutsiyaning daxlsizligi, inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining ramzi va kafili» deb belgilanib, «ramz» iborasi orqali Prezidentga nafaqat yuridik, balki siyosiy-simvolik maqom ham beriladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 105-moddasida boshqacha yondashuv qo'llangan, ya'ni Prezident «davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlaydi», 109-moddaga ko'ra, Prezident: fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishi, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir. Bu yerda alohida modda orqali kafillik funksiyasi nisbatan tor doirada saqlanmoqda.

Fransiya Konstitutsiyasining 5-moddasida boshqacha model taklif etiladi: Prezident «Konstitutsiyaga rioya etilishini ta'minlaydi» va «o'zining hakamligi (arbitraji) orqali davlat hokimiyat organlarining normal faoliyatini ta'minlaydi» – «hakamlik» (arbitrage) Prezidentga tarmoqlar o'rtasidagi nizolarda hal qiluvchi vakolat beradi, bu O'zbekiston Konstitutsiyasining 105-moddasidagi «kelishilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlash» formulasiga yaqin, biroq yuridik jihatdan yanada aniq mustahkamlangan.

Komarova yashirin vakolatlarining amaliy oqibatlari xususida «davlat boshlig'ining umumiy va strategik masalalar bilan shug'ullanmay, u yoki bu sohadagi aniq muammoni hal qilish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olish xavfini keltirib chiqaradi», deya qayd etib [1, 20-b.], «bu prezident vakolatlarining amalga oshirilishimi yoki ijro hokimiyatining faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvmi?», degan savolni o'rtaga tashlashdi [1, 20-b.].

M. Baglay bu masalani boshqa rakursda yoritib, «davlat boshlig'ining funksiyalarini vakolatlar bilan to'liq hajmda aniqlashtirish mumkin emas, shu sababli davlat boshlig'ining Konstitutsiyada ochib berilmagan vakolatlari doimo mavjud bo'ladi», deb qayd etgan [5, 114-b.]. J. Tleubayev «yashirin vakolatlar deganda, qonunchilikda bevosita ko'rsatilmagan, ammo Prezidentning asosiy faoliyatidan kelib chiqadigan nazarda tutilgan vakolatlar tushuniladi» [6, 34-b.], deb belgilaydi. Olimlarning bu tezi Rossiya Konstitutsiyasining 80-moddasi mazmuni bilan mustahkamlanadi: Prezidentning «muvofiqlashgan faoliyatni ta'minlash» funksiyasi mavjud, biroq uni amalga oshirish mexanizmi ko'rsatilmagan – mana shu bo'shliq yashirin vakolatlarining shakllanishiga asos bo'ladi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 105-moddasidagi «ta'minlaydi» formulasi ham shunday xarakterga ega: modda matnida muvofiqlashtirishni ham, rahbarlikni ham, nazoratni ham, arbitrlkni ham o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan keng mazmun mavjud.

J. Tleubayev davlat boshlig'i vakolatlarini, yuridik mustahkamlash shakliga ko'ra, konstitutsiyaviy, implitsit, yashirin va qonunchilik vakolatlariga bo'lib, implitsit va yashirin vakolatlarni bir narsa deb hisoblaydi [6, 34-b.]. V. Prokofyev ham bu nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlab: «Ikkala holatda ham prezidentning to'g'ridan-to'g'ri qonunchilikda nazarda tutilmagan, biroq asosiy faoliyatidan kelib chiquvchi vakolatlar sanaladi», deb ta'kidlaydi [7, 8-b.].

MDH olimlarining mazkur fikrlarini AQSh va Yevropa yondashuvlari bilan solishtirish terminologik masalani yanada murakkab, biroq ilmiy jihatdan dolzarbligini belgilaydi.

S. Prakash davlat boshlig'i vakolatlarini to'rt toifaga ajratadi: maxsus vakolatlar (specific powers), huquq beruvchi vakolatlar (vesting clause powers), tarkibiy vakolatlar (structural powers) va matndan tashqari vakolatlar (extra-textual powers) [8, 328-b.]. S. Prakash taksonomiyasini AQSh Konstitutsiyasining II moddasi 1-bo'limiga tatbiq qilish mumkin: «Ijro hokimiyati AQSh Prezidentiga tegishli» deb belgilangan, bu Prezidentning konstitutsiyada aniq sanab o'tilmagan, biroq «ijro hokimiyati» tabiatidan kelib chiqadigan vakolatlariga asos bo'ladi.

Yevropa ilmiy an'anasida S. Grimaldi butunlay boshqacha yondashuv asosida «rasmiy vakolatlar konstitutsiyalarda belgilab qo'yiladi, norasmiylar esa mustahkamlanmaydi, biroq legitimlikni jamiyat tomonidan tan olinish orqali oladi», deya qayd etib [2, 29-b.], norasmiy vakolatlarining to'rt turini ajratadi: o'rinbosar (substitutive), parallel (parallel), tavakkalga asoslangan (risk-taking) va buzuvchi (subverting) [2, 21-b.]. Germaniya Asosiy Qonunida Bundesprezidentning vakolatlari faqat rasmiy: tayinlash (63–64-moddalar), parlament tarqatish (63, 68-moddalar), qonunlarni e'lon qilish (82-modda), biroq amaliyotda u xalq tomonidan keng qo'llab-quvvatlanish orqali siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata oladi: rasmiy nutqlar, xabarlar va shaxsiy uchrashuvlar orqali siyosiy yo'nalishlarga ta'sir ko'rsatadi – bu Grimaldining «norasmiy vakolatlar» tushunchasining parlamentar tizimda namoyon bo'lishidir. Bu vakolatning amaliy misoli: 2014-yil Avstriya

Prezidenti Hayns Fisher qonunni imzolashdan bosh tortdi [2, 31-b.]. Avstriya Konstitutsiyasining 67-moddasiga ko'ra, Prezidentning rasmiy harakatlari Hukumat taklifiga asoslanishi shart, biroq Fisher qonunni imzolashdan bosh tortish orqali konstitutsiyada bevosita belgilanmagan, ammo de-fakto mavjud bo'lgan «veto» vakolatini namoyish qildi.

Tahlil etilayotgan masala yuzasidan ushbu uch yondashuv (AQSh, Yevropa, MDH)ni umumlashtirib, qayd etadigan bo'lsak, J. Tleubayev va V. Prokofyevlar tomonidan implitsit va yashirin vakolatlarining bir xil deb ko'rsatilishi bilan kelishib bo'lmaydi. S. Prakash taksonomiyasiga tayanib, implitsit vakolatlar ko'proq konstitutsiya matnidan mantiqiy ravishda kelib chiqadi, yashirin vakolatlar esa, konstitutsiya matnidan kelib chiqmaydi, ammo amaliyotda shakllanadi, degan fikrga kelish mumkin.

Biroq masala yuqorida qayd etilgan atamalar bilan cheklanmaydi. Siyosiy-huquqiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, prezidentning konstitutsiya matnida to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan vakolatlarini ifodalash uchun o'ndan ortiq atamalar qo'llaniladi. AQSh Oliy Sudi hokimiyat vakolatlarining to'rt umumiy kategoriyasini tan olgan: belgilangan (enumerated), nazarda tutilgan (implied), natijaviy (resulting) va tabiiy (inherent) [9]. Shu bilan birga, L. Fisher tomonidan «qoldiq vakolatlar» (residual powers) doktrinasi alohida ishlab chiqilgan [10, 491–493-b.], J. Lokk an'anasidagi «prerogativ vakolatlar» (prerogative powers) tushunchasi Buyuk Britaniya va Fransiya tizimlarida keng qo'llaniladi [11, §159–168], T. Mo va U. Xouell «bir tomonlama vakolatlar» (unilateral powers)ni zamonaviy prezidentlikning belgilovchi xususiyati deb atagan [12, 132-b.]. AQSh Oliy Sudining Curtiss-Wright (1936) qarorida «federal hukumatning tashqi siyosat vakolati Konstitutsiyaning o'zidan emas, balki milliy suverenitet tabiatidan kelib chiqadi» [13], deb belgilangan – bu yashirin vakolatlarining sud tomonidan tan olinishining klassik misolidir.

Prezidentning vakolatlarini tasniflashda yana bir muhim, e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan turi mavjud bu – favqulodda vakolatlar – yashirin vakolatlarining eng xavfli turi, zero ular konstitutsiyaviy cheklolarni vaqtincha to'xtatish imkonini beradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 109-moddasi 19-bandi Prezidentga favqulodda holat joriy qilish vakolatini bergan, biroq 93-modda 18-bandiga ko'ra, bu Oliy Majlis palatalari tasdiqini talab qiladi, ya'ni bu ikki bosqichli tizim Prezidentning mustaqil harakatini cheklashga qaratilgan. Xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida ushbu masala turlicha tartibga solingan. Fransiya Konstitutsiyasining 16-moddasida Respublika muassasalari, millat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi jiddiy va bevosita xavf ostida bo'lganda va davlat organlarining normal faoliyati buzilganda, Prezident «sharoit talab qiladigan choralarni ko'radi» – bu 19-moddaga ko'ra, tasdiq talab qilmaydigan mustaqil vakolatdir. 16-modda bo'yicha Prezident qonunchilik vakolatini ham o'z zimmasiga olishi mumkin, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi vaqtincha to'xtatiladi. AQSh Konstitutsiyasining II moddasi 2-bo'limida Prezident «Qurolli Kuchlarning Bosh qo'mondoni» deb belgilangan, ammo favqulodda vakolatlar aniq sanab o'tilmagan, tarixan Linkoln (Fuqarolar urushi davrida habeas corpus ni Kongress ruxsatisiz to'xtatish) va Ruzvelt (Ikkinchi jahon urushi davrida ijro farmoyishlari orqali keng choralar ko'rish) bu bo'shliqdan o'z maqomining tabiatidan kelib chiquvchi vakolat (inherent powers) sifatida foydalangan [14, 23-26, 51-54-b.], AQSh

Oliy Sudning Youngstown (1952) qarori esa, bu vakolatlarining chegarasini belgilagan [15].

Ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida, adabiyotlarda uchragan atamalarni tahlil qilgan holda, ularning siyosiy-huquqiy tabiatidan kelib chiqib, quyidagi guruhlariga tasniflash, ya'ni muallif taksonomiyasi taklif etiladi:

Birinchi guruh – konstitutsiyadan kelib chiquvchi vakolatlar (implied, incidental, structural, resulting): konstitutsiyada belgilangan vakolat doirasida mantiqiy zarurat sifatida kelib chiqadigan vakolatlar, masalan, tayinlash vakolatidan rahbarlik va nazorat vakolati.

Ikkinchi guruh – konstitutsiyadan tashqari vakolatlar (inherent, extra-textual, prerogative): konstitutsiya matnidan kelib chiqmaydigan, balki «suverenitet tabiati», «davlatchilik zarurati» yoki prezidentning legitim davlat rahbari sifatidagi maqomiga asoslangan vakolatlar.

Uchinchi guruh – amaliyot orqali shakllangan vakolatlar (informal, constitutional gloss, persuasion): konstitutsiyada yozilmagan, biroq uzoq muddatli siyosiy-huquqiy amaliyot natijasida de-fakto shakllangan vakolatlar.

To'rtinchi guruh – boshqa organ tomonidan berilgan vakolatlar (delegated, sanksiyalashgan, unilateral): konstitutsiya emas, balki parlament tomonidan qonunlar orqali berilgan yoki o'rnatilgan tartib (amaliyot)ni keyinchalik tasdiqlash orqali legitiqlashgan vakolatlar.

Beshinchi guruh – vaziyatga bog'liq vakolatlar (emergency, ekstraordinar, reserve): odatda, «uyquda» bo'ladigan, faqat favqulodda vaziyat yoki alohida hollar yuzaga kelganda faollashadigan vakolatlar.

Oltinchi guruh – ijro mexanizmlariga oid vakolatlar (farmon huquqi, topshiriq huquqi, vositachilik): rasmiy vakolatlarni amalga oshirish jarayonida shakllangan, biroq qonunchilikda belgilanmagan ijro vositalari – qonunchilikdagi bo'shliqlarni farmon bilan to'ldirish, topshiriqlarni rasmiy vakolat darajasiga ko'tarish kabi.

Demak, yashirin vakolatlarining ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil etish, ushbu siyosiy-huquqiy institutning xorijiy adabiyotlardagi muqobil atamalarini qiyosiy o'rganish va o'zaro taqqoslash natijasida quyidagi xulosalar ilgari suriladi:

- birinchidan, yashirin vakolatlar barcha boshqaruv shakllarida mavjud, biroq ularning foydalanish ko'lamini va xavflilik darajasi institutsional cheklolarning kuchiga teskari mutanosibdir;
- ikkinchidan, yashirin vakolatlar konstitutsiyaviy islohotlar natijasida emas, balki ularga qaramay, siyosiy amaliyot orqali faktik konstitutsiyaviy normalarga aylanishi mumkin, shu sababli konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida nafaqat rasmiy vakolatlarni taqsimlash, balki yashirin vakolatlarining kengayishining oldini olish mexanizmlari (parlament nazorati, konstitutsiyaviy sud nazorati, farmon vakolatini aniq chegaralash)ni kuchaytirish lozim;
- uchinchidan, ushbu sohada O'zbekiston tajribasida uchta huquqiy bo'shliq aniqlandi: Prezidentning ikkinchi guruh (konstitutsiyadan tashqari) vakolatlari uchun Konstitutsiyaning 7-moddasi 3-bandi cheklov bo'lsa-da, uning yuridik mexanizmi aniq emas; 105-moddaning keng formulasi birinchi (konstitutsiyadan kelib chiquvchi) va

oltinchi guruh (ijro mexanizmlariga oid) vakolatlari o'rtasidagi chegarani noaniq qiladi; uchinchi guruh (amaliyot orqali shakllangan) vakolatlar de-fakto mavjud, ammo de-yure tartibga solinmagan;

- to'rtinchidan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 109-moddasida: «Konstitu-tsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi» deb belgilanishi – bu yashirin vakolatlar uchun rasmiy konstitutsiyaviy asos yaratadi;
- beshinchidan, uchinchi guruh (amaliyot orqali shakllangan) vakolatlar O'zbekistonda de-fakto mavjud: parlamentga murojaatnoma, selektor yig'ilishlar, hududlarga tashriflar doirasida hokimlar va davlat organlari rahbarlariga bevosita topshiriqlar berish va b.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Комарова В.В. Скрытые полномочия Президента России // Вестник МГЮА. – 2018. – № 6. – С. 15–23.
- Grimaldi S. Informal Powers of Heads of State in Western Europe // Political Studies Review. – 2023. – Vol. 21(1). – P. 21–41.
- Постановление Конституционного Суда РФ от 31 июля 1995 г. № 10-П «По делу о проверке конституционности Указа Президента РФ от 30 ноября 1994 г. № 2137» // СЗ РФ. – 1995. – № 33. – Ст. 3424.
- Постановление Конституционного Суда РФ от 30 апреля 1996 г. № 11-П «По делу о проверке конституционности п. 2 Указа Президента РФ от 3 октября 1994 г. № 1969» // СЗ РФ. – 1996. – № 19. – Ст. 2320.
- Баглай М.В. «Скрытые» полномочия Президента РФ // Молодой учёный. – 2015. – № 3. – С. 112–116.
- Тлеубаев Ж.С.. Скрытые полномочия Президента РФ // Вестник ЧелГУ. – 2012. – № 27. – С. 34–38.
- Прокофьев В.Н. Экстраординарные полномочия Президента РФ // ГВМС. – 2017. – № 3. – С. 7–12.
- Prakash S.B. A Taxonomy of Presidential Powers // Boston University Law Review. – 2008. – Vol. 88. – P. 327–340.
- Enumerated, Implied, Resulting, and Inherent Powers // Constitution Annotated. Congress.gov. Library of Congress. URL: <https://constitution.congress.gov/browse/essay/artI-S1-3-3/>
- Fisher L. Presidential Residual Power in Foreign Affairs // Capital University Law Review. – 2019. – Vol. 47. – P. 491–520.
- Locke J. Two Treatises of Government. – London, 1690. – Ch. XIV «Of Prerogative». – §159–168.
- Moe T.M., Howell W.G. The Presidential Power of Unilateral Action // The Journal of Law, Economics, and Organization. – 1999. – Vol. 15. – № 1. – P. 132–179.
- United States v. Curtiss-Wright Export Corp., 299 U.S. 304 (1936).
- Schlesinger A.M. The Imperial Presidency. – Boston: Houghton Mifflin, 1973.
- Youngstown Sheet & Tube Co. v. Sawyer, 343 U.S. 579 (1952).

NORMATIV-HUQUQIY MANBALAR:

17. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri).
18. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi (1993-y., 2020-y. o'zgartirishlar bilan).
19. Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi (1995-y., 2022-y. o'zgartirishlar bilan).
20. Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasi (1958-y., 2008-y. o'zgartirishlar bilan).
21. Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy Qonuni (Grundgesetz, 1949- y.).
22. Avstriya Respublikasi Federal Konstitutsiyaviy Qonuni (Bundes-Verfassungsgesetz, 1920-y.).
23. AQSh Konstitutsiyasi (Constitution of the United States, 1787-y.).